



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA MADANIY MEROS VAZIRLIGI BUYRUG‘I

2022-yil “04” iyul

123 A/F-sonli

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining logotip va brandbookni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining yagona korporativ shaklini (stil) va brendini shakllantirish hamda uni xalqaro turistik makonda targ‘ib qilish maqsadida,

BUYURAMAN:

1 “Milliy PR-markazi” DUK tomonidan ishlab chiqilgan Turizm va madaniy meros vazirligi logotipi 1-ilovaga va brandbook 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

2. Matbuot xizmati (L.Raxmanbayeva), “Milliy PR-markazi” DUK (D.Samandarova) logotip va brandbookni Vazirlikning rasmiy saytida erkin foydalanish uchun joylashtirishni ta’minlasin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Turizm va madaniy meros bosh boshqarmalari va tizim tashkilotlari o‘zgartirilgan logotiptan to‘g‘ri foydalanish va uni targ‘ib qilish ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

4. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Turizm va sport vazirligining 2021-yil 14-oktyabrdagi 640 Ich-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Devonxona (R.Yuldashev) ushbu buyruqni nusxasini bir kun muddatda Vazirlikning hududiy bosh boshqarmalariga hamda tizimdagi tashkilotlarga yetkazilishini ta’minlasin

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamga qoldiraman.

Vazir

A.Abduyakimov
Asfiga to‘g‘ri
Devonxona
04.07.22
Yuridik boshqarma boshlig‘i
M.Karimova